

magist?

**Taqrizchilar:**

I. Ibragimov - NamMTI "Menejment" kafedrası mudiri, i.f.n.  
O. Aripov - NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, i.f.d.;

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI**

**NamMQI**  
O'quv-uslubiy boshqaruvi

№ 23  
«30» 05 2024

"TASDIQLAYMAN"  
Namangan muhandislik - qurilish instituti rektori  
SH.T.Ergashev

**INNOVATION MENEJMENT VA TADBIRKORLIK  
FANING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 400000 – Biznes, boshqaruv va huquq  
 Ta'lim sohasi: 410000 – Biznes va boshqaruv  
 Mutaxassislik: 70411201 - Menejment (tarmoqlar va sohalar  
 70411601 - Korporativ boshqaruv

modul kodi va T.2206	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 7.5
modul turi Fanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
inovatsion menejment va tadbirkorlik	90=44M+46a	135	225

### I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan **maqсад** - magistrlarda innovatsion menejment va tadbirkorlik faoliyatini yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatida innovatsion nazarini jihatlarini tadqiq qilish, korxonalarda innovatsion jarayonni tashkil etishning metodologik asoslarini atroflicha o'rganish, innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning **vazifalari** - magistrlarda zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitlarida xil xil biznes muammolari, innovatsiyalar va uning imkoniyatlari to'g'risida asosiy bilimlarni qobiliyatlarini kuchaytirishga qaratilgan nazariy mavzularni taqdim etish muhokama qilish, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalardan samarali foydalanish yangi texnika va texnologiyalar, zamonaviy tamoyil va qonuniyatlarni tadqiq etish y'icha bilimlarni o'zlashtirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ushbu fan magistrarga kelajakda tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kompaniyalar biznesini rivojlantirishda zaruriy amaliy malaka taqdim qiladi. Ushbu fan doirasida magistrlar egallaydigan bilimlar qisqacha quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayoni tashkil etish va modelini ishlab chiqish;
- tadbirkorlikda innovatsiya faoliyatini iqtisodiy samaradorligini baholash;
- tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayonini boshqarish;
- tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning tashkiliy strategiyasi;
- innovatsion loyihalarni baholash;
- tadbirkorlikda innovatsion loyihalar xavf-xatarini boshqarish
- innovatsion tadbirkorlikni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

##### I- mavzu. Tadbirkorlikning innovatsion faoliyati va innovatsiya

Innovatsion menejment va tadbirkorlik faniga kirish. Fanning nazariy asoslari. Innowatsionning ahamiyati va zaruriyati. Innovatsion menejment va tadbirkorlikning predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanni o'rganishda boshqa fanlarning ahamiyati, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda innovatsiyalarning o'ri. Innovatsiya tushunchasi va uni turkumlanishi.

**2-mavzu. Innovatsion menejment, uning usullari va vazifalari**  
Innovatsion menejmentning asosiy tushunchalari uning mohiyati va ahamiyati. Innovatsion menejmentning vazifalari, innovatsion menejmentni tashkil etish. Innovatsion menejmentning maqsadlari

**3-mavzu. Innovatsion tadbirkorlikning mohiyati, uni tashkil etishning nazariy asoslari**  
Innovatsiyalar tasnifi, ularning tashkiliy shakllarining xususiyatlari. Innovatsion tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va mazmuni.

#### 4-mavzu. Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tamoyillari

Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tamoyillari va vazifalari. Innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish asoslari. Innovatsion tadbirkorlikning shakllari.

#### 5-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayoni va modeli

Tadbirkorlikda innovatsiya faoliyatining davriy dinamik o'sishi. Innovatsiya jarayonlari, vazifalari va bosqichlari.

#### 6-mavzu. Tadbirkorlikda innovatsiya jarayoni modelining shakllanishi

Tadbirkorlikda innovatsiya jarayoni modelining shakllanishi. Tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning asosiy bosqichlari.

#### 7-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayonini boshqarish

Tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirish. Tadbirkorlik faoliyatini raqobatbardoshligi. Innovatsiya asosida rivojlantirish. Innovatsiya jarayonlarini boshqarish strategiyasi.

#### 8-mavzu. Innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish

Innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish. Innovatsiya jarayonlarini boshqarishga tizimli yondashish. Tadbirkorlikda texnik-texnologik innovatsiyani boshqarish tizimi elementlari.

#### 9-mavzu. Tadbirkorlikda innovatsiya faoliyatini iqtisodiy samaradorligini baholash

Innovatsiya faoliyatini samaradorligini ko'rsatkichlari. Tadbirkorlik innovatsion faoliyati iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.

#### 10-mavzu. Tadbirkorlikning innovatsion salohiyatini baholash

Tadbirkorlikning innovatsion salohiyatini baholash. Innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini baholash.

#### 11-mavzu. Tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning tashkiliy strategiyasi

Rivojlantirishning tayanch strategiyasi. Intensiv o'sish strategiyasi. Integral o'sish strategiyasi. Diversifikatsiyalangan o'sish strategiyasi.

### 12-mavzu. Investitsion o'sish strategiyasi

Investitsion o'sish strategiyasi. Himoyalani sh strategiyasi. Optimal va past  
rajatlar strategiyasi. Tadbirkorlikning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.

### 13-mavzu. Innovatsion rivojlanish strategiyasi

Innovatsion rivojlanish strategiyasining mohiyati. Innovatsion strategiya va  
ngliklarning hayotiy davri. Innovatsion omillar va o'zgarishlar.

### 14-mavzu. Innovatsion faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish

Tadbirkorlikni innovatsion faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish.  
novatsion rivojlanish strategiyasini shakllanishi

### 15-mavzu. Innovatsion loyihalarni baholash

Innovatsion loyihalarni baholash usullari. Innovatsion loyihalarni mezonlar  
yhati bo'yicha baholash. Moliyaviy mezonlar. Innovatsion loyihani ball usuli  
osida baholash.

### 16-mavzu. Tadbirkorlikda fan va innovatsiya jarayonining aloqadorligi

Innovatsiyani o'zlashtirish jarayonini boshqarish. Yangiliklarni ijtimoiy va  
xologik yo'nalishini boshqarish.

### 17-mavzu. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi. Intelektual aktivni boshqarish

### 18-mavzu. Tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning ijtimoiy yo'nalishi

Innovatsiyani boshqarishda rahbarning tutgan o'rni. Innovatsiyani boshqarishning  
ta va quyi bo'g'in menejerlari.

### 19-mavzu. Innovatsiya qarshiligi va uni bartaraf etish usullari

Innovatsiya qarshiligi va uni bartaraf etish usullari. Innovatsion qarorlar qabul  
ish. Innovatsiya jarayonida korxonada ichki madaniyatning o'zgarishi.

### 20-mavzu. Tadbirkorlikda innovatsion loyihalarni xavf-xatarini boshqarish

Xavf-xatar turkumlari. Xavf-xatarni baholash va tavsiflash.

### 21-mavzu. Sanoat xavf-xatari

Xavf-xatarni minimallashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqish. Sanoat xavf-  
xatari.

### 22-mavzu. Innovatsion tadbirkorlikni boshqarishni takomillashtirish

#### yo'nalishlari

O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari.  
zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy  
xanizmalarini takomillashtirish. Venchur firmalar. Texnoparklar.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tadbirkorlikning innovatsion faoliyati va innovatsiya.
2. Innovatsion menajment, uning usullari va vazifalari.
3. Innovatsion tadbirkorlikning mohiyati, uni tashkil etishning nazariy asoslari
4. Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tamoyillari
5. Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayoni va modeli
6. Tadbirkorlikda innovatsiya jarayoni modelining shakllanishi
7. Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayonini boshqarish
8. Innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish
9. Tadbirkorlikda innovatsiya faoliyatini iqtisodiy samaradorligini baholash
10. Tadbirkorlikning innovatsion salohiyatini baholash
11. Tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning tashkiliy strategiyasi
12. Investitsion o'sish strategiyasi
13. Innovatsion rivojlanish strategiyasi
14. Innovatsion faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish
15. Innovatsion loyihalarni baholash
16. Tadbirkorlikda fan va innovatsiya jarayonining aloqadorligi
17. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi
18. Tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning ijtimoiy yo'nalishi
19. Innovatsiya qarshiligi va uni bartaraf etish usullari
20. Tadbirkorlikda innovatsion loyihalarni xavf-xatarini boshqarish
21. Sanoat xavf-xatari
22. Innovatsion tadbirkorlikni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari
23. Venchur firmalar va texnoparklar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir  
akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.  
Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib  
pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

#### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Korxonalarda innovatsiya faoliyatining davriy dinamik o'sishini tahlil  
qilish.
2. Innovatsion omillarning raqamli biznes boshqaruvidagi o'rni va  
ahamiyatining tahlili.
3. Innovatsiya jarayonlarini boshqarish strategiyasini tadqiq etish va  
loyihalashtirish.
4. Tadbirkorlik innovatsion faoliyati iqtisodiy samaradorligini baholash  
ko'rsatkichlarini tahlil qilish. (Taqdimot ko'rinishida topshiriladi).
5. Innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini baholash.
6. Tadbirkorlikning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. (Taqdimot  
ko'rinishida topshiriladi)

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish vsiya etiladi.

#### V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

- innovatsion menejment, tadbirkorlikning innovatsion faoliyati, innovatsion tadbirkorlik tushunchalari, mazmun va mohiyatini, innovatsion menejmentni tashkil qilish usullarini, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayoni, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayonini boshqarish, tadbirkorlikda fan va innovatsiya jarayonining oqqadorligini *bilishi kerak*;
- tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya jarayonini boshqarish; tadbirkorlikda innovatsiya faoliyatini iqtisodiy samadorligini baholash; tadbirkorlikda innovatsion oliyatning tashkiliy strategiyasini ishlab chiqish; innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish; innovatsion loyihalarni baholash; tadbirkorlikda innovatsion loyihalar xavf-xatarini boshqarish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;
- innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish *talakalariga ega bo'lishi kerak*.

#### VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ijodiy vazifa;
- Ta'limning faol metodlari;
- insho yozish;
- tahliliy hisobot taqdimoti;
- taqdimotning video / slyadlar tayyorlash;
- nashrlarni tayyorlash;
- bilts-savolnoma;
- debatlar va munozaralar;
- mulohaza va nazorat uchun savollar;
- amaliy topshiriq;
- krossvordlar;
- turli darajadagi testlarni echish.

#### VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

"Innovatsion menejment va tadbirkorlik" kursi 3 semestrga mo'ljallangan bo'lib, fanni o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshiriqlarini topshirishi kerak bo'ladi.

#### Asosiy adabiyotlar

1. G.A. Taraxtiyeva Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya nashriyoti" Toshkent, 2013
2. N.M.Rasulov, SH.N. Zaynutdinov Innovatsion menejment. Darslik.

T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020 y., -540b.  
3. В.М. Анишина, А.А. Дагаева Инновационный менеджмент. Учебное пособие. Москва, дело, 2003.

4. O.M. Abdullayev, A.A. Fattaxov, K.Ahmedov. Raqamli iktisodiyot. T.: "LESSON PRESS, nashrbi 2020 yil - 686 bet.

5. N.Q. Yo'ldoshev va boshqalar. Innovation management. Darslik, TDIU. 2011 y. 312 b.

6. O.S. Kazakov Menejmentga kirish: Darslik. – T.: 2021. – 378 b.

7. N.Q. Yo'ldoshev, V.I. Nabokov "Menejment nazariyasi". Darslik. – T.: TDIU, 2011. - 367 b.

8. M. Sharifxo'jayev va boshqalar. Menejment. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2001 y. - 464 b.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. A.A. Abduvaliyev Raqamli iktisodiyot: tendensiyalar va istikbollar (Monografiya) - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2020. - 190 b.

2. A.Sh. Bekmuradov, A.A. Musaliyev, Sh.I. Xashimxo'djayev "Axborot biznesi": O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 160 b.

3. S. Rahmonqulova Tadbirkorlar uchun on-layn interaktiv xizmatlar. Internetning virtual imkoniyatlaridan biznesda qanday qilib, umumiy foydalanish mumkin. Qo'llanma. Toshkent, infoCOM.UZ, 2015, 176 bet.

4. Управление бизнесом в цифровой экономике: вызовы и решения / под ред. И.А.Аренкова, Т.А.Лезиной, М.К.Сенжарик, Е.Г.Черновой. — СПб.: Изд-во С.-Петербурга, ун-та, 2019. — 360 с.

#### Axborot manbaalari

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.  
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) – Elektron huquqiy sayti.

4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi sayti.

5. [www.ereport.ru](http://www.ereport.ru) – Obzornaya informatsiya po mirovoy ekonomike.

6. [www.stplan.ru](http://www.stplan.ru) – Ekonomika i upravleniye.

7. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com) – ekonomicheskiye pokazateli.

8. <https://book4you.org/s/Kriticheskiye%20mysliteniye>

9. <https://zen.yandex.ru/media/id/5b9007e0b4dba900ac7c07cb/10-uprajnenii-dlia-razvitiia-kreativnosti-5b9e7ec24f203f00ad288a20>

10. <https://4brain.ru/tvorcheskoe-myslennie/>

11. <https://www.nationsencyclopedia.com>

12. <https://www.nationsonline.org/>

7 Fan dasturi Namangan-muhandislik qurilish institutida ishlab chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy Kengashining 2023 yil " " dagi ..somli yig'ilishida tasdiqlangan.

8 Fan/modul uchun mas'ul:

R.Ismatov NamMQI, "Menejment" kafedrasini professori